

RANGTASVIRCHI RASSOMLAR ASARLARI TAHLILI ASOSIDA MAVZULI KOMPOZISIYA YARATISH

Komoldinov Sirojiddin Jomoldin o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti
Art pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi
sirojiddinkomoldinov705@gmail.com

Anotatsiya: Maqolada o'tmishdagi buyuk musavvirlar yetuk rangtasvir asarlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shundan kelib chiqqan holda yangi rangtasvir kompozitsiyalari uchun ilmiy va amaliy maslaxatlar berilgan.

Kalit so'zlar: kolorit, nisbat, xomaki tasvir, chiziq, manzara, kompozisiya, tasviriy san'at, faktura, tasvir, shakl, munosabat.

СОЗДАНИЕ ТЕМАТИЧЕСКОЙ КОМПОЗИЦИИ НА ОСНОВЕ АНАЛИЗА ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХУДОЖНИКОВ-ЖИВОПИСЦЕВ

Аннотация: В статье проведен научный анализ зрелых живописных произведений великих художников прошлого. На основе этого анализа даны научные и практические рекомендации по созданию новых живописных композиций.

Ключевые слова: колорит, пропорция, эскиз, линия, пейзаж, композиция, изобразительное искусство, фактура, изображение, форма, соотношение.

CREATING A THEMATIC COMPOSITION BASED ON THE ANALYSIS OF WORKS BY PAINTERS

Abstract: The article scientifically analyzes the mature paintings of great artists from the past. Based on this analysis, scientific and practical recommendations for creating new painting compositions are provided.

Keywords: color palette, proportion, sketch, line, landscape, composition, fine art, texture, image, form, relationship.

KIRISH

Tasviriy va amaliy san'at sohalarida milliy merosimizni tiklash, Kamoliddin Behzodning boy ijodiy merosini xalqimizga to'la yetkazish, soha rivojiga katta hissa qo'shgan atoqli rassom va xalq ustalari xotirasini abadiylashtirish, ijodiy yo'nalishda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni tashkil etish, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda mamlakatimizda tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn sohasi samaradorligini yanada oshirish maqsadida bir qator ishlar olib borilmoqda

desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbek xalqining tarixi, madaniyati durdonalarini har tomonlama o'rganish va tahlil-talqin etish g'oyat muhimdir. Tasviriy san'at tushunchasi tur va janrlarining ta'lim tarbiyadagi ilmiy mohiyatini tasviriy san'atning nazariy masalalariga murojaat qilishimizning o'ziga xos maqsad va sabablari mavjud. Avvalo shuni aytish joizki, u masala ilmiy pedagogik jihatdan, ayniqsa, o'zbek tilida batafsil tadqiq va talqin qilingan deb bo'lmaydi.

Shuning uchun ko'pgina ilm vakillari, ziyolilarimiz, jumladan, pedagoglar ham tasviriy san'atning tur, janrlari va o'ziga xos ko'rinishlarini ajrata olish bilimiga ega emaslar. Ayniqsa, bu narsa tasviriy san'at o'qituvchilari va pedagoglarimiz oldiga yanada mas'uliyatli vazifalar yuklandi. Umuman san'at tarixi va san'atshunoslik muammolari deyarli hamma sohadagi o'qituvchi kadrlar tayyorlashda muhim va dolzarb muammolardan biri sanaladi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda bu sohaga jiddiy e'tibor berilganini ko'ramiz. Amerikada ta'limning ilmiy asoslangan o'ziga xos jihatlari bo'lib, mavzumizga tegishli shunday dalillarni misol keltirish maqsadga muvofiq. "Bo'lajak o'qituvchilar o'zlari tanlangan asosiy predmetlardan tashqari yana o'quv metodikasi, ta'lim psixologiyasi, musiqa, san'atshunoslik kabi predmetlarni ham o'rganadilar"[2]. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, eng ilg'or davlatlardan bo'lmish AQSHda deyarli hamma fan o'qituvchilari san'atshunoslikdan bilim olar ekanlar. O'zbekistondagi tasviriy san'at o'qituvchilarni tayyorlash masalasini nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi. Eng achinarli tomoni shundaki, san'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutida ham tasviriy san'atning tur va janrlari kompozisiya muammolari, badiiy tarbiya nazariyasining asoslarini ilmiy pedagogik jihatdan alohida o'rganadigan bo'lishlari mavjud emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Pedagogika fanining bu mazmuni ilmiy jihatdan o'rganishga keladigan bo'lsak, tasviriy san'at o'qituvchilari mukammal nazariy bilimlarsiz bu borada ta'lim-tarbiya olib borishlari mumkin ham emas. Har bir xalq, millat jahon san'atining ravnaqiga qaysidir darajada o'z ulushini qo'shib kelgan. Yangi ijodiy izlanishlar evaziga san'at namunalari vujudga kelmoqda. Xalqlar, millatlar, shuningdek, davrlar san'ati bir-biriga qo'shilib borib rivojlanadi, o'zgacha namunalarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun ham san'atda yangicha oqimlar, yo'nalishlar, uslublar

shakllanmoqda. Tasviriy san'at tushunchasi uning zamonaviy namunalaridan orqada qolmasdan o'zlashtirmog'imiz, o'quvchi va yoshlarga ulashmog'imiz darkor. Tabiiyki, bu masalani yechish pedagogika fani uchun mas'uliyatli vazifadir. Shu nuqtai nazardan tasviriy san'at pedagogikasining oldiga qo'yilgan muammo va talablarni tasviriy san'atning nazariy asoslarini ilmiy jihatdan imkon qadar o'rganishga e'tibor qaratilmoqda.

Madaniyat taraqqiyoti natijasida xalqlar o'rtasidagi, ma'naviy aloqalar rivojlanib borar ekan, san'atga bo'lgan talab kundan-kunga oshib bormoqda. Ma'lumki, umumiy ma'naviyat oshgan sari san'atga bo'lgan istemol qilish hissi kuchayadi. Bu borada oddiy bir misol sifatida bozorlar va savdo do'konlardagi narsa va buyumlarni qanchalik rang-barang tasvirlar bilan bezatilishini bir ko'z oldimizga keltiraylik. Bularning hammasi tasviriy san'at vakillarining mehnat va ijodiy ishlari natijasidir. Haqiqatdan ham, rassomlar mehnatiga har kuni, har qadamda duch kelamiz. Ammo bu ijodkorlar faoliyatining ko'p jihatlari haqida deyarli ko'pchilik yaxshi bilmaydi. Shunday qilib, insonlarning kundalik turmush tarzida keng qo'llaniladigan barcha narsa va buyumlarning nafis va go'zal bo'lishiga odamlar qanchalik intilayotganligini o'zi bu mavzuning zaruriyatiga yetarli dalildir. Tasviriy san'at borasidagi nazariy bilimlarni ilmiy pedagogik jihatdan talqin etish masalasiga tasviriy san'at tushunchasining o'zini tahlil qilish orqali yondashish maqsadga muvofiqdir. Odamlar tomonidan biror-bir ish, narsa, buyum va hokazolarning mohirlik bilan bajarilishi va maromiga yetishi inson mehnatining san'atkorona bajarilganligini bildiradi. Demak, pedagogning ham o'z mehnatini puxta, chiroyli, kam-ko'stsiz bajarishi tasviriy san'at namunasi bo'lib hisoblanadi. Musavvir, haykaltarosh, me'mor, kulol, bastakor, yozuvchi va boshqa ijodkorlar yaratgan asarlarni esa, shubxasiz, san'at asari deymiz.

Tasviriy san'at asari qaysi ko'rinishda bo'lmasin kishilarning his-tuyg'usiga, ruhiyatiga ta'sir etuvchi ma'naviy go'zallik, ezigulik sifatida namoyon bo'ladi. Har-bir ijodkor o'zgacha izlanadi, o'zgacha mehnat qiladi. Ana shuning uchun ham san'atning o'ziga xos turlari mavjud. Adabiyot, musiqa, teatr, kino, sirk, me'morchilik, tasviriy, amaliy bezak va boshqa san'at turlari bor. Tasviriy san'at tushunchasi borasida insoniyat azaldan amaliy, ijodiy ishlar va nazariy fikrlarni

bildirib kelganlar. Biz ularning hammasini tahlil va talqin qilib maqsadimiz chuqurroq va mukammal o'rganishdir. O'zbekiston tasviriy san'at tarixi namunalariga jiddiy yondoshib o'rganishini ham taqozo etmoqda. -eng qadimgi haykallar, ularning ishlanish darajasi, ya'ni shu haykallardagi to'laqonli namunalarning foydalanish mumkin bo'lgan uslubiy jihatlarini tahlil qilgan holda amaliyotda qo'llashning yo'l yo'riqlarini ilmiy va nazariy, amaliy jihatdan asoslash; - amaliy san'at buyumlari, shuningdek, tasviriy san'atni o'rganishda san'at ashyosi bo'la oladigan boshqa turli mahalliy materiallar, narsa va buyumlarni amalda keng qo'llash; -o'tmish devoriy rasmlardagi ishlanish an'analari va miniatyura tasvirlar, kitoblarga, muraqqa (albom)larga ishlangan tasviriy san'at sirlarini o'rganish yo'l-yo'riqlarga, har bir davrning ilg'or maktablari haqidagi fikrlarni zamonaviy O'zbekiston pedagogika faniga imkon qadar kengroq olib kirish kabi muammolar ham a'lohida dolzarb masaladir.

Tasviriy san'at muammosiga va uning yangicha shakllariga o'zining xolisona fikrini bildirgan yevropalik olim Xosse Ortega-n-Gassetning ushbu so'zlarini keltiramiz: "Inson qalbida muammo bor, u ko'tarinki, fojeiy. Inson nimaiki qilmasin, uning hamma xatti-harakati shu muammo bilan belgilanadi. Ularning hammasi shu muammoni hal qilish yo'lida qo'yilgan qadamlardir. Bu muammo shu qadar ulkanki, bir marotabada uni bartaraf qilishning iloji yo'q, uni bo'laklarga bo'lib tashlab unga xukmronlik qil [1]" degan matalga amal qilish, odam muammoni bo'lak-bo'laklarga ajratadi-da, asta-sekin, qism-baqism hal qiladi. Ilm-inson muammosini hal qilish yo'lidagi birinchi bosqich, axloq – ikkinchi bosqich, san'at eng xufiya, eng ardoqli qatlamga yetib borishga urinishdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Darxaqiqat, shunday ekan badiiy ta'lim va tarbiyani shakllantirishda yana bir qator vazifalar dolzarbligini ko'ramiz. Birinchidan, jamiyatimizdagi hozirgi taraqqiyot darajasi yuksalayotganligi tufayli o'tmishning turli san'at sirlariga va dunyoqarashlariga nisbatan adolatli munosabat, to'g'ri va tubdan ilmiy yondoshishlar vujudga keldi. Shunday sharoitda tasviriy san'at va uning tarixidagi namunalari yoshlarni har tomonlama tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ilm-fan, san'at sirlarini har jihatdan o'rganishga da'vat qiladi.

Ikkinchidan, tasviriy san'at asarlarining badiiy qimmatini tahlil va talqin qila bilish va talabalarda badiiy idrok qilish bilimini, shuningdek, mukammal xarakterga ega bo'lgan san'at asarlarini ajrata olish saviyasiga ega bo'lishlari uchun ta'lim mazmunini takomillashtirib borishni ham taqozo etadi. Uchinchidan, har qanday san'at asari ijtimoiy fikr mahsuli bo'lib, u o'zida insoniy qadriyatlarni aks ettiradi. Bo'lajak pedagog rassomlardagi bilim va tushunchalar saviyasini ana shu nuqtai nazardan to'la shakllantirishga erishish ham dolzarb masala. Ma'lumki, har qanday san'at turi badiiy yetuklik maktablarining qonuniyatlariga ega bo'ladi. Ana shunday qonuniyatlar mavjudligini o'zi san'at sirlari barhayotligining bosh omilidir.

Rangtasvirda kompozisiya-tuzish, joylashtirish, ijod qilish natijasida san'atning alohida qismlarini mantiqan bir butunlikka keltirishini anglatadi. Tasviriy san'atda kompozisiya juda keng ma'noga va o'ziga xos muhim jihatlarga ega. Tasviriy san'atning har bir turi yoki janrida kompozision tuzilish ma'lum darajada bir-biridan o'ziga xos farqli jihatlarni talab qiladi. Kompozision tugal tasviriy san'at asarida rassomning maqsadi, o'y fikrlari, niyati, o'z oldiga qo'ygan jiddiy vazifasi, ya'ni dunyoqarashi o'ziga xos uslubda ifoda etiladi va shu asar orqali ezgulik sari da'vat qilinadi. Inson obrazini, odamlarning ma'naviy ruhiy qiyofalarini yaratilayotgan kompozisiyalarda to'la-to'kis yoritib berishda rassom insonning plastik anatomiyasini qay darajada o'zlashtirilganligi yaqqol sezilib turadi. Darhaqiqat, bo'lajak rassom-pedagoglarni shakllantirishda bu masalaga e'tibor qaratish muhimdir. Aks holda sohani yuzaki o'zlashtirish, ya'ni chalasavodlik yuzaga keladi. O'zbekistonda tasviriy san'ati tarixi namunalarini o'rganish jarayonida kompozisiya jihatidan mukammal, badiiy qimmatga ega asarlar mavjud ekanligini ko'ramiz. Respublikamiz hududidan topilgan qadimgi haykallardagi badiiy va anatomik tuzilishlarini tahlil qilib yaratilgan. San'at ustasiga tan berasan. Dalvarzintepada topilgan "Devatto boshi" haykalida bir qarashda nafis va nozik xislatlar ifodalangandek ko'rinadi, yuz qiyofasini astoydil kuzatish natijasida ichki ruhiy kechinmalar bilan burkangan jiddiy va salobatli obraz ko'z oldimizda gavdalanadi. Haykal sochlaridagi jingalak tasvirlar asarlar go'zalligini boyitibgina qolmasdan, ma'naviy psixologik jihatlarni o'zida yashirib turgandek ma'noni beradi. Kampirtepada topilgan budda haykalining bejirim qiyofasida esa o'ychanlik va

donishmandlik mahorat bilan tasvirlangan. Gap haykalning ishlanish uslubidagi kompozisiya yutuqlari haqida ketar ekan, insonning bosh qismi tasvirlangan bu asarlar kalla suyagining anatomik tuzilishi jihatlariga javob bera olishini aniqlab ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Har bir davrning o'z xarakteri, o'z ruhiyati mavjud. Tasviriy san'atda o'sha jarayonlarni ko'zguda ko'rgandek ko'rish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bu o'rinda qadimgi tasvirlardan Afrosiyob devoriy suratlarda aks ettirilgan odamlarning qiyofasi ham ishonchli, asosli dalillardandir. Miniatyura san'atiga xos portretlarda ham o'zgacha bir izlanishlar nomoyon bo'ladi. Masalan, Komoliddin Bexzodning mashhur portretlaridan biri – Sulton Husayn Boyqaro asari so'zimizga dalil bo'la oladi. Sharqning bu mumtoz musavvirining inson qiyofasini yaratish borasida tengsiz san'atkor ekanligi barcha portretlari orqali isbotlangan. Jumladan, Alisher Navoiy, Sulton Husayn Boyqaro, Muhammad Shayboniyxon, Abdurahmon Jomiy kabi asarlarini misol keltirish mumkin. Kamoliddin Behzodning eng katta tuhfaridan bir o'tmish ajdodlarimizning ma'naviy qiyofasini har tomonlama jonlashtirib tasvirlab berilganligidir. Zamonaviy rassomlar ijodiy asarlarini o'rganish jarayonida ham kompozisiya tushunchasi haqidagi fikrimiz yanada boyiydi va bu mavzuning yangi-yangi qirralari bilan tanishamiz. O'zbekiston xalq rassomi Malik Nabiyeu o'zbek diyorining mehnatkash xalqini, uning boy tarixi va buyuk siymolari obrazlarini kompozisiya jihatidan mukammal va o'ziga xos talqin eta olgan, atoqli mo'yqalam sohiblaridan biridir. Tarixiy shaxslar portreti borasida uzoq yillar davomidagi ijodiy tajriba, bilim va malakalar evaziga yuzaga kelgan "Sohibqiron" siymosi jamlangan portretda takrorlanmas obrazni ko'ramiz va bu chinakam izlanishlari natijasidir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ijodiy asar yaratish jarayonida faqatgina rasm chizishni o'zi bilan emas, balki kompozitsiya fanini rivojlantirish tarixi bilan tanishib, imkoniyat darajasida mavjud fanga tegishli ma'lumotlarni tartibli ravishda o'rganib, kompozitsiya nazariyasi xaqida hamda rassomlar asarlarini chuqur tahlil qilishni ham o'rganishimiz lozim. Zero, rassomlar ijodiy faoliyatini asarlarini o'rganish, rangtasvirda portret, natyurmort, manzara va shu kabi boshqa janrlarda ham

rangtasvirda yangi mavzuli kompozitsiyalar yaratishda buyuk rassomlar asarlarini tahlil va talqin qilish bo'lajak rassom-pedagoglarni kompozitsiya ishlashdagi muhim jihatlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xosse Ortega-n-Gasset. Odam ato jannatda. Tafakkur jurnali №1, 1996 yil, 118 bet (Ozod Obid tarjimas)
2. Yo'ldoshev J.G'..Xorijda ta'lim. -Toshkent: "Sharq", 1995. 25 bet
3. O'G'Likomoldinov, S. J., & Abdirasilov, S. F. (2023). ON THE INTEGRITY OF ILLUSTRATION IN PAINTING LESSONS AND ITS RELATIONSHIP WITH COMPOSITION ACTIVITY. *Экономика и социум*, (3-2 (106)), 168-171.
4. Jomoldin o'g'li, K. S. (2022, April). RANGTASVIRDA MANZARA ISHLASHNING AMALIY AHAMIYATI. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 101-104).
5. Sattarov, F. (2024). SCIENTIFIC-THEORETICAL FOUNDATIONS OF LEARNING THE RULES OF COMPOSITION AND DEPICTION IN PAINTING. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(10), 379-382.
6. Farxod, S. (2023). STILL LIFE GENRE CHARACTERISTICS AND EDUCATION PLACE IN THE PROCESS. *Academia Science Repository*, 4(04), 416-422.
7. Komoldinov, S., & Sattarov, F. (2024). Ijodiy asar yaratish bo'yicha metodik tavsiyalar. *Scientific-theoretical journal of International education research*, 2(1), 42-46.
8. Sattarov, F. I. (2024). Techniques and Methods of Creating Fine Art Works. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*, 2(3), 269-271.
9. Adhamjon o'g'li, O. M. (2025). NATYURMORT TUZISH VA UNI TASVIRLASH USULLARI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 3(33), 75-80.
10. Adhamjon o'g'li, O. M. (2024). QAYSI BIRI YAXSHIROQ: NATURADANMI YOKI FOTOSURATDANMI?. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(31), 222-225.
11. Komoldinov, S. (2023, December). QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA KOMPOZITSIYANING AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: □Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions□* (Vol. 1, No. 01).
12. Rakhimov, K. (2023). THE PLACE OF GRAPHICS IN THE FINE ARTS. Solution of social problems in management and economy, 2(2), 5-8.
13. Rakhimov, K. (2023). THE SIGNIFICANCE OF SCULPTURE IN THE DEVELOPMENT OF MODERN FINE ART OF UZBEKISTAN. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(2), 5-9.
14. Rakhimov, H. U. (2023). ANALYZING THE PROFESSIONAL QUALITIES OF FUTURE FINE ARTS TEACHERS BASED ON ART STUDIES. *Экономика и социум*, (1-1 (104)), 50-53.
15. Раҳимов, Х. (2023, December). ТАСВИРИЙ САНЪАТ НАМУНАЛАРИ ОРҚАЛИ САНЪАТШУНОСЛИК СОҲАСИГА ТАЙЁРЛАШ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC*

AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions" (Vol. 1, No. 01).

16. Boltaboyev, A. (2023). O'QUV JARYONIDA QALAMCHIZGI VA QORALAMALARNI BAJARISHDA TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLATNIRISH TEXNALOGIYASI. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (7), 553-559.

17. Boltaboyev, A. (2024). TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING MECHANIZMI VA USULLARI. *Академические исследования в современной науке*, 3(8), 140-146.

18. Boltaboyev A. BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions". 2023. T. 1. – №.

19. Babur, N., Muazzam, N., & Shahrizoda, A. (2024). THE UNIQUENESS OF WORKING WITH GEOMETRIC OBJECTS IN PENCIL DRAWING CLASSES. *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(2), 62-66.

20. Nabiyeu, B. (2022). NATYURMORT KOMPOZITSIYASINI TUZISH VA TASVIRLASHDA BOSQICHLAR ASOSIDA ISHLASHNING AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, 3(12), 334-338.

21. Бобур, А. Ў. Н. (2022). Тасвирий санъат асарларини яратишда композиция қонунларининг илмий асосларидан фойдаланиш. *Science and Education*, 3(2), 1087-1095.

22. O'G'li, B. A. A., Lutfullayeva, S. N. Q., & Olimjonova, O. J. Q. (2024). Rangtasvirda kompozitsiya ishlashning qonun-qoidalari, uslublarini o'rganishning nazariy va amaliy asoslari. *Science and Education*, 5(12), 214-218.

23. O'G'li, B. A. A. (2024). Talabalarning figurali kompozitsiya ishlashda naturadan qarab ishlashning ahamiyati. *Science and Education*, 5(12), 229-232

24. Adhamjon o'g'li, O. M. (2024). BOLALARNING TASVIRIY FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISH, USLUB VA YO'NALISHLARI, SINFDa TASVIRIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(20), 115-121.

25. Sh, B. D. (2023). ISSUES OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE VISUAL ARTS TEACHERS THROUGH GRAPHICS. *Экономика и социум*, (1-1 (104)), 8-11.